


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda Qoraqalpoǵiston Respublikasi bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 26 250,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpoǵiston Respublikasining qo‘shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>21 881,0</b>	<b>26 250,7</b>	<b>107,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 433,3	24 477,4	107,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 447,7	1 773,3	107,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 433,3</b>	<b>24 477,4</b>	<b>107,4</b>
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>			
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>6 022,5</b>	<b>7 037,7</b>	<b>103,7</b>
sanoat	5 433,9	6 526,3	107,4
qurilish	1 746,1	2 080,1	110,5
<b>xizmatlar</b>	<b>7 230,8</b>	<b>8 833,3</b>	<b>109,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 011,2	1 208,7	107,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 176,0	1 498,4	120,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 043,6	6 126,2	107,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 558,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.

### **2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 93,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo’jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,8 % ni, sanoat tarmog’i 26,7 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 36,0 % ni tashkil qildi.

**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**



	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	93,4	93,2
mahsulotlarga sof soliqlar	6,6	6,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>29,5</b>	<b>28,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>35,1</b>	<b>35,2</b>
sanoat	26,6	26,7
qurilish	8,5	8,5
<b>xizmatlar</b>	<b>35,4</b>	<b>36,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,9	4,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	6,1
boshqa xizmat tarmoqlari	24,7	25,0

**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,8 %), sanoatda – 107,4 % (26,7 %), qurilishda – 110,5 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 109,7 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,4 % (4,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,5 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,7 % dan (25,0 %) iborat bo'ldi.

**2020-2021-yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,0 f.p. (2020-yilda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,8 f.p. (2020-yilda – 0,6 f.p.) va qurilish tarmog‘i – 0,8 f.p. (2020-yilda – 0,5 f.p.), xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2020-yilda salbiy – 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2020-yilda – 0,4 f.p.)ga ko‘paydi.

**2021-yilda YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**



2021-yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,7 % va sanoatda – 111,9 % qayd etildi.

**2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha deflyator indeksi (*o'tgan yilga nisbatan % da*)**



**2021-yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan %da)**

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 56,4 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 58,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

